

PAPER

FANLARNI O'QITISHDA TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Hamroqulov Izzatbek Ziyodullo o'g'li^{1*}

¹ Buxoro davlat texnika universiteti

* Hamroqulov@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada o'qitishda ta'limgan tashkil etish tartiblari qonun va qonuniyatlar ko'rib chiqiladi.

Key words: ta'limgan shakllari, mashg'ulot turlari, guruhiy jamoa, shaxsga yo'naltirilgan mash'ulotlar.

Assosiy qism

Ta'limgan oluvchilarini texnikaviy fanlarni o'qitishda ularning o'qitish turlari va shakllari bo'yicha nazariy bilimlarini kengaytirish mashg'ulot turlari bo'yicha so'z yuritiladi. Ta'limgan muassasalarida texnik fanlarni o'qitish va o'rgatish quyidagi mashg'ulot turlarida amalga oshiriladi:

- Ma'ruza;
- Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari;
- Integrallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari;
- Bilimlarni mustahkamlash va kengaytirishga yo'naltirilgan seminarlar;
- Kollokvium mashg'ulotlari;
- O'quv amaliyoti;
- Mustaqil ishlari;
- Kurs ishlari (loyihalari);
- Maslahatlar;
- To'garaklar.

Har bir mashg'ulot turining qisqacha mazmuniga to'xtaladi. Ma'ruza – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'limgan beruvchi tomonidan boshqarib turiadigan ta'limgan hamda tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma'lum bir maxsus soha bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta'limgan oluvchilarga yetkaziladi. Bu jarayonda ta'limgan beruvchi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari bilan tanishtiradi. Nazariy dars asosan maxsus jihozlangan o'quv xonalarida o'tkaziladi. Bu xonalarda turli texnik vositalar ishlatalishi mumkin.

Ma'ruza: - umumlashtirilgan shakldagi ilmiy bilimlarga asos soladi;

- ma'rular: informatsion, muammoli va aralash xillarga bo'linadi; belgilangan soat bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlaridagi bilimlar talabalarning mustaqil ishlari va amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari – aniq maqsadga qaratilgan va ta'limgan beruvchi tomonidan

boshqarib turiadiki, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytildi. Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari ta'limingning tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalardan, laboratoriyalarda, o'quv polygonalarda ish or'numda joylashgan real vositalardan foydalanan holda o'tkaziladi. Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari: - bilimlarni chuqurlashtirib, kengaytiradi, aniqlashtiradi, mustahkamlaydi, kasbiy faoliyatni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantiradi. Integrallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari - bu nazariy va amaliy mashg'ulot birgalikda muvofiqlashtirilgan shaklda o'tkazilishdir.

Bunday mashg'ulotlar ikkala shaklga ajratilgan vaqtning umumiyo miqdoriga rioya etilgan holda o'tkaziladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotning har biriga qat'iy vaqt o'rnatilmaydi. Bu ta'limgan turi yangi bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limgan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan seminarlar - ma'ruza mashg'ulotiga qo'shimcha bo'lib, talabalarni yaxshi o'zlashtirishlariga turki beradi. Ma'ruza paytida berilgan bilimlarni mustahkamlah va kengaytirish uchun kichik guruhlarga topshiriqlar berish va ularni bajartirishga qaratilgan mashg'ulot hisoblanadi. Seminarlar aniq bir mavzuni o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi mashg'ulotda maslahatchi yoki moderator rolini bajaradi. O'qituvchi talabalarni mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltiradi. Talabalar berilgan topshiriqlarni refyerat, taqdimot yoki hisobot ko'rinishida taylorlab himoya qilishadi va baholanadi seminar mashg'ulotlar asosan amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Kollokvium mashg'ulotlari - texnik fanga oid ilmiy muammolar bo'yicha izlanishlar olib borish va ularni hal qilishga yo'naltirilgan «kollokvium» shaklidagi mashg'ulotlar ham o'tkazilishi talabalarning ijodiy

va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, «kolokvium» mashg'ulotlari yakuniy nazoratga tayorgarlik qilish uchun nazorat mavzularini muhokama qilish uchun ham o'tkazilishi mumkin. O'quv amaliyoti-bu ta'limga muassasalarida talabalarning mashg'ulotlarni o'tkazishi va yakuniyda o'qituvchi bilan darsni tahlil qilish orqali yutuq va kamchiliklarini aniqlashdir.

Asosiy e'tibor talabaning dastlabki shaxsiy mahoratlari va kompetentsiyalarini namoyon qilishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. Ushbu turdag'i shaxsga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etishga asosan talabaning mustaqil harakatlari va fikrlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga shakllarini tanlash talab etiladi.

Mustaqil ishlar - ma'ruza bilimlarini chuqurlashtirib, kengaytiradi va bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish uchun nazariy baza hozirlaydi. Kurs ishlari (loyihalari). Fanga oid topshiriq yoki loyihalarni talabalarga bajartirish orqali ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar. Maslahatlar. Talabalarga qo'shimcha mashg'ulotlar yoki maslahatlar tashkil qilish orqali ularda bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar. To'garaklar. Talabalarga darsdan tashqari vaqtida kasbiy ijodiy va maxsus topshiriqlarni bajartirish orqali ularda mustaqil va ijodiy ishslash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot turi.

Mashg'ulotlar quyidagi shakllardan amalga oshiriladi:

A) Yurituvchi ishni keng ko'lamdag'i o'quv jarayonini individuallashtirish va talabalarni faollashtirishga ko'maklashadi.

Yakka tartibdagi ishni keng ko'lamdag'i o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'naltirilgan individual ish bilan almashtirmaslik lozim. Ushbu shakldagi o'quv mashg'ulotlarni ta'limga jarayonida qo'llash imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- natijalarni solishtirish (tanlovlari, musobaqalar);

- o'zlashtirishni aniqlash;

- axborotni mustaqil izlash va to'plash; - qayta shug'ullanish va takrorlash; - o'quv yozuvlari, topshiriqlarni individual bajarish; B) Juftlikda hamkorlikda ishslash bu o'quv mashg'ulotni

- o'qitishning dialogga ko'maklashuvchi ijtimoiy shaklidir. U muvofiglashtirish qobiliyatini o'rganishga yordam berishi hamda fikr almashish va o'zaro yordam tufayli qiziqtirishni va natijani yaxshilash mumkin. Bu shaklda o'qitishni qisqa muddatda ham qo'llash mumkin. Juftlikda hamkorlikda ishslashda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarga kutilmaganda vaqtga bo'lgan ehtiyojning oshishi, talabaning bajarilgan ishga qo'shgan shaxsiy hissasiga nisbatan yetarlicha baholanmaganligi yoki talabalarning ishga mazmunga bog'liq bo'lmagan mavzular bilan bandligi kiradi. Buni bartaraf etish uchun o'qituvchi talabalardan bajarilgan ish natijalari to'g'risida hisobot so'rashi, zarur hollarda o'zining fikrini bildirishi va natijani izohlashi lozim. b) Kichik guruhlarda ishslash. Kichik guruhlarda ishslash zamonaviy ta'limga eng samarali shakli hisoblanadi. - Bu o'qitish shaklida bir necha kishi (guruuning maqbul miqdori - 3-7 kishi) guruuning yagona maqsadini ko'zda tutgan holda masala va muammolarni mustaqil yechadi, gurunda barcha talabalar o'zaro munosabatda bo'ladi; - Guruhda ishslashning shakllari.

Ish shakli Guruh -1 -2 -3 -Guruhlarda - 4 bitta mavzu bo'yicha ishslash - mavzu mehnatni taqsimlashga asoslangan guruhda ishslash - oraliq shakl- mavzu - mavzu guruhdag'i ishga tayorlanish bo'yicha ko'rsatmalar V maqsadlarning aniq ifodalari (slaydda, doskada va yozuv qog'ozida yozma ravishda) - ish to'g'risida aniq yo'rinnomalar (imkonli boricha qadamlar ketma-ketligi ko'rinishida yozma va har bir guruh uchun alohida) - tushunmovchilikka yo'l qo'ymaydigan qoidalar (guruh ta'limga shakli, guruh kattaligi, foydalanimadigan bino, ishdagi tanaffuslar tartiboti va hokazo) - ishchi vositalarni sincikovlik bilan tashkil qilish va tayyorlash natijalar bo'yicha hisobot tuzish to'g'risida aniq tasavvur guruhni tuzish bo'yicha ko'rsatmalar guruhlar har xil tamoyillar bo'yicha tuzilishi mumkin:

- ixtiyoriy;
- joylashuv tartibi asosida (bir-biri bilan yonma-yon o'tirganlar bir guruhni tashkil qiladi);

- hisoblash orqali (1-2-3-4, 1-2-3-4, bir xil sonlarning bir xil guruh);

- harflar yoki raqamlarni tortishni taklif qilish; - belgilar tortishni taklif qilish; Afzallikkabi: vaqtidan kam sarflanishi, guruh tarkibining har xil jinsliligi, qatnashuvchi o'g'il va qizlar tanishadi, antipatiyadan (tanlab olinmaslikdan) hech kim kamsitilmaydi.

- qiziqish bo'yicha;

- talabalar turli xil mavzular bo'yicha taqsimlanadi; - mavzu haqida tushunchalari, belgilari va boshqalar bo'yicha talabalar taqsimlanadi;

- barcha talabalar bitta mavzu ustida ishlaydilar; Afzallikkabi: yaxshi ishchi muhit natijaning yaxshilanishiga ko'maklashadi ishchi topshiriqni ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar ishchi topshiriqlar turli xilda ishlab chiqishi mumkin: - Yopiq ishchi topshiriqlar: o'qituvchi bajarilishi shart bo'lgan topshiriqni muayyan aniqlab beradi. Doskada, yozuv qog'ozida, slaydda yozma ifodalanishi shart; - ochiq ishchi topshiriqlar: topshiriq yo'llari, natijalari, usullarini ochiq qoldiradi, biroq bajarilishi shart. Talabalarga tilga nisbatan tushunarli va mazmun jihatdan bir xil ifodalanishi kerak (masalan, «... ni o'lchash uchun apparatni ishlab chiqing»); - erkin ishchi topshiriqlar: Hech qanaqa ishchi topshiriq mavjud emas, guruhda ishslashni davom ettirish to'g'risidagi kelishuv esa shart, masalan. Loyiha doirasida (masalan, «Guruh ... ni o'zlashtirish uchun javob beradi»). Guruhda ishni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar - zarur hollarda yordam ko'rsatish;

- aniqlikka nisbatan ketma-ketlikka intilish:

- alohida guruh a'zolarining funktsiyasi aniqlangan bo'lsa, kichik guruhda o'zaro harakatlanish jarayoni uchun quyidagilar foydali bo'lishi mumkin (rollar - rahbar;

- bayonnomani yurituvchi guruh kotibi;

- vaqt kuzatuvchisi;

- jarayonni kuzatuvchi va hokazo) - alohida guruh a'zolarining umumiy natijaga qo'shayotgan hissasini doimiy kuzatib borish guruh ishini baholash bo'yicha ko'rsatmalar - natijalarni keng ko'lamda nazorat qilish va keyinchalik tahlil qilish;

- guruhda ish natijalari yozma ravishda biriktirilgan va ko'paytirilgan bo'lishi mumkin (natijalarni ko'paytirish). To'g'ri, ko'pincha ularni izohsiz tushunish qiyin. Agar bir nechta guruh o'z ishini sharhlasa (izohlassa), unda bunga juda kam vaqt talab qilinadi. Bu yerda natijalarni o'qib chiqish imkoniyatini berish maqsadga muvofiqdir. Hamkorlikdagi ish yoki kichik guruhdagi ishning borishida savollarni yozib olish va berilgan savollarni qisqa javob berishlari uchun mos ravishdagi guruhga tarqatish; - Ishchi natijalar yoki mahsulotlarni taqdim qilish uchun navbatdagi usul - bu «Imkoniyatlar bozori».

Alohida guruhlar quyidagilarni taqdim qiladi: devoriy gazetalar, modellar, videofilmlar, radiomontaj, kartinalar, sahna namoyishlari. Bu mahsulotdan bog'liq ravishda navbat bilan yoki bir vaqtning o'zida o'tishi mumkin. Guruh a'zolaridan biri mahsulotning taqdimotini o'z mas'uliyatiga oladi. Qolgan barcha turli xil mahsulotlarni ko'rib chiqadi va savollari beradi.

- Guruhdagi ish natijalari to'g'risida shuningdek, guruhlarning aralash tarkibidan ham billib olish mumkin (yangi guruhlar tarkibida barcha eski guruhning bittadan a'zosini ishlaydi). Bu yerda ko'pincha tezkorlik bilan almashishga erishish mumkin, biroq bunda ishtirokchilar turli xildagi axborotni oladilar. Ishlab chiqarish jarayoning borishida barcha ishtirokchilar yangi kichik guruhlarga xisobot bera olishlari uchun belgilab borishlari kerak.

Kichik guruhlarda ishni tashkil etish va o'tkazish sxemasi mashg'ulotga kirish - maqsadni qo'yish - axborot va rejalashtirish - guruhlarga ajratish - vazifalarni (rollarni) taqsimlash uchun stimul (rag'bat) - topshiriqlarni taqsimlash -

vaqtini aniqlash (belgilash) guruhlarda ishlar bajarilishi 1 - guruh 2-guruh 3-guruh ish jarayonini (harakat tartibini) aniqlash, topshiriqni bajarish, natijalarni aniqlash ish jarayonini (harakat tartibini) aniqlash, topshiriqni bajarish, natijalarni aniqlash, ish jarayonini (harakat tartibini) aniqlash, topshiriqni bajarish, natijalarni aniqlash, guruh ishini baholash natijalar to'g'risida guruhlarning taqdirmoti muhokama qilish umumiy natijani aniqlash baholashni hamma vaqt ham belgilash yordamida amalgalashirish zarur emas, biroq talabalardan hamma vaqt aniq teskari axborotni (javob) og'zaki yoki yozma baholash orqali olishlari lozim. Teskari axborot talabalarga guruh bo'lib ishlash mazmunini ham, hamkorlik turini ham yaxshilashlari uchun ko'rsatmalar berishi kerak. Kichik guruuhlar ishini baholash metodi

- O'qituvchi kuzatuvlar asosida, alohida guruh a'zolarining individual yutuqlarini ham, guruh bajargan umumiy ishni ham baholaydi. Bu ikkala bahoning o'rtacha qiymati natijani beradi. Bu usul o'qituvchining kuzatish qobiliyatiga juda yuqori talablar qo'yadi.

- Guruhning alohida a'zolari boshqa barcha guruh a'zolarining individual yutuqlarini baholaydi. Barcha baholarning o'rtacha qiymati har bir kishi uchun alohida individual bahoni beradi. Bu usul talabalarda o'z-o'zini baholash kompetentsiyalarining rivojlanishiga ko'maklashadi va o'qituvchining baholashga muvozanatni ko'rsatadi.

- Har bir guruh a'zosi guruhning umumiy natijasi uchun baho oladi. Bu usul adolatsizlik xavfini keltirib chiqaradi, chunki unda individual bajarilgan ish hisobga olimmaydi. Biroq, bu usul shuningdek, hamkorlikdagi ish uchun mas'uliyat hissiyotini ham kuchaytirishi mumkin.

- Guruh o'zini o'zi baholaydi va uni o'qituvchi o'zining bahosi bilan solishtiradi hamda yakuniy natijani chiqarishda 50 % ga hisobga oladi. Bu usul talabalarni baholash bilimdonligiga o'rgatish uchun qo'l keladi.

- Guruhda ish yakunlangandan so'ng guruh ishi mazmuni yozma ravishda tekshiriladi va buning uchun har bir talaba individual baho oladi.

- Test topshiriglari uchun alohida belgilardan olingan va guruhning umumiy natijasi bahosidan olingan o'rtacha qiymat yakunda har bir guruh a'zosi uchun alohida bahoni beradi. Ikki usul ham aniq sharoitlarni yaratadi, biroq guruhdagi ish jarayonini e'tiborga olmaydi va guruhdagi hamkorlikka xalaqit qilishi mumkin. G) guruhiy ta'lif shakli. 25-30 talabandan iborat guruhda ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarni hamda o'quv amaliyotlari o'tkaziladi. D) jamoaviy ta'lif shakli. Bu shaklda ma'ruza mashg'ulotlari 2 yoki 3 talabalar guruhlaridan iborat (talabalar soni 50-75 kishi) jamoada olib boriladi. E) Ommaviy ta'lif shakli. Bu shaklda ma'ruzalar, ochiq darslar, ma'ruza konferensiylar 4 va undan ortiq talabalar guruhidan iborat (talabalar soni 75 kishidan ortiq) jamoada axborotni ommaviy uzatish metodikasiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Формирование и развитие у учащихся колледжей способности самостоятельного получения и переработки учебной информации/Н.Г.Музафарова. — Текст: непосредственный // Молодой учёный. — 2012. — № 1 (36). — Т. 2. — С. 104-106. — URL: <https://moluch.ru/archive/36/4182/>
- Музафарова Н.Г. Формирование и развитие у учащихся колледжей способности самостоятельного получения и переработки учебной информации //Молодой учёный. — 2012. — №. 1-2. — С. 104-106.
- Azizov, B., Savriev, Y., Buronov, S., Muzaffarova, N. (2024). Parameters of a combined plow rotor for the climatic

conditions of the Bukhara region. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 01032). EDP Sciences.

- Norov, S., Zokirova, D., Muzaffarova, N., Ustaboev, A., Madraximov, A. (2023). Theoretical preconditions for determining the utilization coefficient of shift time when using planning machines. In E3S Web of Conferences (Vol. 390, p. 01031). EDP Sciences.
- Norov, S., Nabiev, M., Zokirova, D., Muzaffarova, N. (2021, September). Effects of irregularities of irrigated lots on stable operation of planning units. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 839, No. 5, p. 052040). IOP Publishing.
- Azizov, B., Savriev, Y., Buronov, S., Muzaffarova, N. (2024). Parameters of a combined plow rotor for the climatic conditions of the Bukhara region. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 01032). EDP Sciences.
- Norov, Sobir, et al. "Theoretical preconditions for determining the utilization coefficient of shift time when using planning machines."E3S Web of Conferences. Vol. 390. EDP Sciences, 2023.
- Norov, S., Zokirova, D., Muzaffarova, N., Ustaboev, A., Madraximov, A. (2023). Theoretical preconditions for determining the utilization coefficient of shift time when using planning machines. In E3S Web of Conferences (Vol. 390, p. 01031). EDP Sciences.